

YURAK KASALLIKLARINI DAVOLASHDA XALQ TABOBATINING O`RNI. XUSUSAN DORIVOR O`SIMLIK LARNING SAMARADORLIGINI ANIQLASH.

E.D.Raimberdiyev, T.X.Sherov

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi (talaba)

Anatatsiya: Yurak-qon tomir kasalliklari ko'p faktorli etiologiyaga ega bo'lib, uning rivojlanishi uchun turli xavf omillari, jumladan, giperxolesterolemiya, gipertenziya, chekish, diabet, noto'g'ri ovqatlanish, stress va jismoniy harakatsizlik kabilar bilan bog'liq. Yurak kasalliklarini davolashda va profilaktika maqsadida juda ko'p dorivor o'simliklar ishlatiladi. Dorivor o'simliklar inson hayotida juda katta ajralmas qismni tashkil qilib, bugungi kunda turli o'simliklardan ajratib olinayotgan moddalar tibbiyotda keng qo'llanilmoqda va bugungi kunda zaytun moyining samaradorligi katta ekanligi o'z tasdig'ini topdi.

Kalit so'zlar:

Tadqiqotning dolzarbligi:

Kirish: Yurak kasalliklari (yurak xastalıkları) — yurakning normal faoliyati buzilishi bilan namoyon bo'ladigan yurak-tomir tizimiga oid patologiyalar guruhi. Bunday kasalliklar epikard, perikard, miokard, endokard, yurakning klapan apparati va qon tomirlari shikastlanishlari tufayli yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Yurak kasalliklari uzoq vaqt davomida yashirin shaklda, klinik tasvirsiz kechishi mumkin. Turli xil o'smalar bilan bir qatorda, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda erta o'limning asosiy sababchilaridan biri hisoblanadi. Framingem yurak, o'pka va qon Milliy instituti (AQSh) tadqiqotlariga ko'ra, odamlarda yurak-tomir kasalliklari rivojlanishida eng muhim omillar semizlik, kamharakat turmush tarzi va chekish sanaladi. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari — yurak, arteriyalar va venalar kasalliklari. Ular juda ko'p va xilma-xil. Bu kasalliklarning ba'zilari (revmatizm, miokardit va boshqalar) yurakni, ayrimlari arteriya (ateroskleroz) yoki venalarni (masalan, tromboflebit), boshqalari butun yurak-qon tomir tizimini shikastlaydi (gipertoniya kasalligi).

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari dunyo bo'yicha hozirgi kunga qadar nogironlik va o'limning asosiy sababi ekanligicha qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, barcha o'lim holatlarining 56 foizi yurak-qon tomir tizimi kasalliklari oqibatida kelib chiqadi. Yevropa mamlakatlarida yurak-qon tomir kasalliklari yiliga 4,3 mln (48%) aholi o'limiga sababchi bo'ladi. Yurak-qon tomir kasalliklari ko'p faktorli etiologiyaga ega bo'lib, uning rivojlanishi uchun

turli xavf omillari, jumladan, giperxolesterolemiya, gipertenziya, chekish, diabet, noto'g'ri ovqatlanish, stress va jismoniy harakatsizlik kabilar bilan bog'liq. Xalq tabobatida yurak qon – tomir kasalliklarini davolashda bir qator tabiiy mahsulotlar, jumladan, “Majmui Rahmoniy”, “Alkoman”, “Astosh”, “Shifoibosim”, “Shifo” biologik faol oziq– ovqat qo'shilmalari ishlatiladi.

Tasnifi:

Yurak kasalliklarini shartli ravishda shikastlanish o'chog'iga ko'ra uch katta guruhga ajratish mumkin:

1. Yurakning klapan apparatiga ta'sir qiluvchi kasalliklar. Turli xil orttirilgan va tug'ma yurak nuqsonlarini o'z ichiga oladi.
2. Yurakning qon tomirlariga ta'sir qiladigan kasalliklari va ularning oqibatlarini. Bunga yurak ishemik kasalligi, miokard infarkti, stenokardiya va boshqalar kiradi.
3. Bevosita yurak qobig'i to'qimalariga ta'sir qiladigan kasalliklar, ularga perikardit, endokardit, miokardit kiradi.

Bunday kasalliklarning sabablari turmush tarzidan tortib, irsiy nuqsonlargacha bo'lgan keng doiradagi omillarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot materiali va metodlari:

Ko'pgina dorivor o'simliklarda ko'p miqdorda vitaminlar, minerallar, efir moylari, kislotalar va boshqa oziq moddalar mavjud. Shuning uchun ular turli kasalliklarni davolashda yordam beradigan bir qator xususiyatlarga ega va ular ham profilaktika sifatida qo'llaniladi. Flavonoidlar ko'pchilik o'simliklarda mavjud bo'lgan polifenolik birikmalardir.

Flavonoidlarning inson salomatligiga foydali ta'siri asosan ularning kuchli antioksidant faolligidir. Ular saraton, yurak-qon tomir kasalliklari, artrit, qarish, katarakt, xotirani yo'qotish, insult, Altsgeymer kasalligi, yallig'lanish, infeksiya kabi bir qator surunkali va degenerative kasalliklarning oldini olish yoki kechiktirishi haqida xabar berilgan. Yurak uchun shifobahsh o'tlar quyidagi harakatlar ro'yxatiga ega:

1. Quvvatlash . Yurak uchun o'tlar sog'liq uchun muhim bo'lgan spazmolitik va vazodilatator ta'sirga ega. Masalan, qizilmiyaning, yong'oqning va parsnipning misol bo'la oladi
2. Qon bosimi pasaygan . Qon bosimini kamaytirishga yordam beradigan antigipertensiv ta'sirga ega bo'lgan o'simliklar mavjud, ammo bu muammoning rivojlanishining dastlabki bosqichlarida. Ushbu ish bilan spazmolitik, gipotensiv va tinchlantiruvchi xususiyatlarga ega o'tlar mukammal tarzda boshqariladi. Bu guruhga qora tog 'va botqoq cho'chqasi kiradi.

3. Tinchlantiruvchi . Ko'p kasalliklar ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolar bilan birga keladi. Psiho-sedativ ta'sirga ega bo'lgan yurak uchun o'tlar, masalan, melissa, romashka o'simligi mavjud.
4. Arteriyalarni kuchaytirish . Yurak mushaklarining mustahkamlanishi uchun antistlerotik ta'sirli o'simliklardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tajriba qismi;

O'simliklardan olingan preparatlar antiradikal faolligini aniqlash.

Tabiiy antioksidant sifatida ziravorlar, turli yog'lar, choylar, urug'lar, donalar, kakao qobig'i, meva va sabzavotlar ishlatiladi. Tasdiqlangan askorbin kislotasi, tokoferollar, karotinoidlar, shuningdek, flavonoidlar (quercetin, kempferol, miritsitin), katexinlar (karnosol, rosmanol, rosamiridifenol) yoki polifenollar va fenolik kislotalar kabi turli individual antioksidantlarni o'z ichiga olgan tabiiy birikmalarning antioksidant faolligi yuqori bo'lgan birikmalar mavjud. Xususan, Euforbiya o'simligidan ajratib olingan preparatlar, zira, kungaboqar yog'idagi rayhon va murch sintetik antioksidant – butiloksitoluoldan kuchliroq, yapon saforasi o'simligidan esa deyarli ikki barobar samarali ekanligi aniqlangan. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu ish doirasida 1 ta Zaytun moyi antiradikal faolligi (ARF); (o'simlik nomi) barqaror erkin radikal DFPG (2,2-difenil-1-pikrilgidrazil) ga nisbatan Antioksidantlar turli xil ta'sir mexanizmlariga ega bo'lishi mumkin, ularning faolligini turli usullar yordamida o'rganish tavsiya etiladi. Ushbu ishda ARF ekstraktlari erkin radikal DFPG bilan bog'liq holda baholandi. Tekshiriluvchi o'simliklardan olingan birikmalar DFPG ning suvli eritmasiga qo'shilganda, erkin radikal molekulalar radikal bo'lmagan shaklga aylanadi, DFPG ning intensiv binafsha rangli eritmasi esa rangsizlanadi. O'rganilayotgan namunalarni qo'shganda DFPG eritmasining optik zichligidagi o'zgarish kinetikasini ko'rsatadi.

Sinov namunalarining ARF ni solishtirish uchun taqdim etilgan eritmadan 50 mkl har bir ekstrakt uchun konsentrasiya tanlangan. 1 raqamli namunalar juda yuqori ARF ko'rsatganligi sababli, biz tegishli erituvchi (DMSO) bilan 1: 100 nisbatda suyultirgan.

Tadqiqotning natijalari va muhokama:

Olingan natijalarni tahlil qilib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, tekshirilgan № 1 sonli o'simliklardan olingan DFPG eritmasiga qo'shilganda, DFPG eritmasining optik zichligining keskin pasayishi kuzatiladi, bu ularning yuqori ARF dan dalolat beradi. 1 namunalar uchun ARF 100 marta suyultirilgandan so'ng baholandi, bu o'simliklardan olingan ekstraktlarning aniq antiradikal qobiliyatini ko'rsatadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak yurak kasalliklarini davolashda va profilaktika maqsadida juda ko'p dorivor o'simliklar ishlatiladi. Dorivor o'simliklar inson hayotida juda katta ajralmas qismni tashkil qilib, bugungi kunda turli

o`simliklardan ajratib olinayotgan moddalar tibbiyotda keng qo`llanilmoqda va bugungi kunda zaytun moyining samaradorligi katta ekanligi o`z tasdig`ini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://mymedic.uz/kasalliklar/yurak-tomir/yurak-kasalliklari/>
2. <https://uz.tierient.com/yurak-uchun-otlar-qaysi-osimliklar-eng-samarali-hisoblanadi/>
3. https://www.researchgate.net/publication/364158108_YURAK-QON_TOMIR_KASALLIKLARIDA_ZAYTUN_MOYIDAN_FOYDALANISH
4. Fitoterapiya – M.Maxsumov, X.Aliyev, S.Saidov, Sh.Maxsumov
5. Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” 2-jild. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti
6. Асқаров И.Р. Табобат қомуси. Т.: "Мумтоз сўз".